



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK – ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI UCHUN ZAMIN

Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-iyul kuni Namangan viloyatida islohotlar natijadorligi, hududlardagi ishlarning borishi va loyihalar ijrosi yuzasidan hisobot bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 2-dekabrda qarori bilan Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari belgilanib, katta mara olingan edi. Jumladan, bu yil 4,2 milliard dollar investitsiya jalb etish, 1 milliard dollar eksport qilish, 323 ming ish o‘rni yaratish, 55 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish rejalashtirilgan.

Bunda eng katta zamin — kichik biznes va tadbirkorlik. Namanganda mehnatga layoqatli aholining 82 foizi shu sohada ro‘zg‘or tebrataypti.

Yil boshidan beri viloyatga qariyb 1 milliard 600 million dollar investitsiya kiritilgan. Lekin buning katta qismi Namangan shahri va markaziy tumanlarga to‘g‘ri kelib, Mingbuloq, Norin, Uychi va Chortoqda ham sarmoyalarni ko‘paytirish kerak. Eksportda ham mahsulotlar turini kengaytirish va chekka tumanlar salohiyatini oshirish zarur.

Viloyat qishloq xo‘jaligida ham mo‘l hosil yetishtirilmoqda. Birgina Yangiqo‘rg‘onda daromad gektaridan 20 ming dollardan yuqori.

Shu kabi imkoniyatlarni to‘liq ishga solish uchun Prezidentimiz tashabbusi bilan hududlar ma‘muriy va iqtisodiy

jihatdan isloh qilinmoqda. Namangan viloyatida ham mutaxassislar, ilg‘or tadbirkorlar va xorijiy ekspertlardan iborat “Islohotlar shtabi” ish boshladi. Ularning birgalikdagi izlanishlari natijasida yana 1 milliard dollarlik loyihalar shakllandi.

Yig‘ilishda mutasaddilar ana shu yangi imkoniyatlarni taqdimot qildi. Qayd etilganidek, loyihalar natijasida jami 12 ming ish o‘rni, byudjetga qo‘shimcha 200 milliard so‘m tushum, 160 million dollar eksport manbayi paydo bo‘ladi. Masalan, Norin tumanida aholi xonadonlarida intensiv usulda baliq yetishtirish, Mingbuloqda o‘rdakchilikni rivojlantirish ko‘zda tutilmoqda. Ular oziq-ovqat mahsulotlari mo‘lligini ta‘minlashi va ko‘plab ish o‘rinlari yaratishi bilan ahamiyatli. Davlatimiz rahbari bu tajribani boshqa hududlarda ham tatbiq etish zarurligini ta‘kidladi.

Bugungi kunda viloyatda 55 ming ishsiz aholi, 44 ming kambag‘al oila bor. Ularni kasbga yo‘naltirib, ish topishiga ko‘maklashish, o‘z uyida daromad manbai yaratish vazifasi qo‘yildi. Ijtimoiy muhitni mustahkamlash, mahallalarni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA

JIZZAX VILOYATI INVESTITSIYA VA EKSPORT TEZ O‘SAYOTGAN HUDUDGA AYLANADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatida islohotlar natijadorligi, hududlardagi ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar hal etilishi yuzasidan hisobot bilan tanishdi.

O‘tgan yili 31-dekabrda Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha Prezident qarori qabul qilinib, zarur masalalar hal etib berilgan edi. Xususan, 2025-yilda 2 milliard dollar investitsiya jalb etish, eksportni 285 million dollarga yetkazish, 168 ming kishini ishli qilish chora-tadbirlari belgilangandi.

Bu vazifalar birin-ketin bajarilmoqda. O‘tgan olti oyda Jizzaxda sanoat, servis va qishloq xo‘jaligi sohasida 200 ta loyiha ishga tushdi. Viloyatga 662 million dollar investitsiya kirib keldi. Lekin Do‘stlik, Zafarobod, Paxtakor, Mirzacho‘l tumanlari bu borada ancha orqada qolyapti. Shu bois, yangi loyihalarni, avvalo, shu tumanlarga joylashtirib, aholini ishli qilish zarur.

So‘nggi vaqtlarda viloyatda 250 million dollarlik yirik turizm majmualari ishga tushgani natijasida bir yilda sayyohlar oqimi 2 karra oshdi. Buni yanada oshirish uchun hamma sharoit bor.

Yana bir katta imkoniyat — yer. Jizzaxda 1 million 300 ming gektar qishloq xo‘jaligi yerlari bo‘lgani bilan atigi 40 foizida ekin ekilyapti. Bir gektarga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha daromad ham boshqa viloyatlarga

O‘ZA

KO‘P QIRRALI AMALIY HAMKORLIK KENGAYTIRILADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan telefon orqali muloqot qildi.

O‘zbekiston — Qatar strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Suhbat avvalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qatar Amirining Yaqin Sharqda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash borasidagi faol sa‘y-harakatlarini yuksak baholadi.

Keyingi paytlarda jadal tus olgan ikki tomonlama muloqot va almashinuvlar samarali bo‘layotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zaro tovar ayirboshlash va investitsiya ko‘rsatkichlari faol o‘smoqda, sanoat kooperatsiyasi va infratuzilmani

modernizatsiya qilish bo‘yicha yirik loyihalar texnik jihatdan tayyorlanmoqda va amalga oshirilmoqda.

Shu ma’noda, bo‘ljak yuqori darajadagi tadbirlar, shu jumladan, tashqi ishlar vazirlari raisligidagi Muvofiqlashtiruvchi kengashning birinchi uchrashuvi, Hukumatlararo komissiya, Ishbilamonlar kengashi yig‘ilishlari va biznes forumi natijador bo‘lishiga muhim e‘tibor qaratilayotgani ta‘kidlandi.

O‘zbekiston va Qatar yetakchilari oliy darajadagi tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqdilar.

O‘ZA

**Xalqaro hamkorlik**

Prezidentimiz joriy yil 2-4-iyul kunlari davlat tashrifi bilan Ozarbayjonda bo‘ldi. Geografik jihatdan mamlakatlarimiz yondosh, qo‘shni bo‘lmada, o‘zaro aloqalar tobora rivojlanmoqda. Zero, tarixiy ildizlar, din, an‘ana va qadriyatlarimiz mushtarakligi, til va madaniyatlarimiz o‘xshashligi xalqlarimizni bir-biriga bog‘lab turadi.

SHERIKLIKDAN ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARIGACHA BO‘LGAN ISHONCH YO‘LI

O‘zbekiston — Ozarbayjon o‘rtasidagi muloqotlar ochiq, pragmatik va konstruktiv xarakterga egaligi bilan ahamiyatli. Ayniqsa,

oliy darajadagi uchrashuvlar ikki tomonlama aloqalar rivojiga kuchli turtki bermoqda.

Davomi 2-betda

Yangilanishlar xaritasi



BUYUK MAQSAD SARI ELTUVCHI MASH‘AL

MAKTABGACHA TA‘LIM SOHASIDAGI O‘ZGARISHLAR SAMARASI



“YANGI O‘ZBEKISTON” GAZETASIDA YANGI LOYIHA — “YANGILANISHLAR XARITASI”.

Mamlakatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqdi. Ana shu jarayondagi o‘zgarishlar hududlarda qay yo‘sinda amalga oshmoqda? Bunda oddiy odamlarning hayotidagi yangilanishlar nimalardan iborat? O‘lis qishloq va ovullarda yashayotgan yurtodoshlarimizning o‘y-fikrlari, orzulari qanday? Shu kabi savollarga javob topish uchun gazetamizning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi muxbirlari bilan onlayn guruh yozgan yangilanishlar xaritasini Jurnalistlar o‘z hududidagi yangilanishlar dinamikasi, islohotlar samarasi haqida aytib beradi. Maqsad poxtaxtdan olisda, oddiy odamlar orasida yurgan jurnalistlar nigohi ila mamlakat bo‘ylab qiloch yozgan yangilanishlar xaritasini ko‘rish, tasavvur etishdir. Ilk suhbat mavzusi esa maktabgacha ta‘lim qamrovi bo‘ldi.

Davomi 3-betda

Taraqqiyot odimlari



O‘ZBEKISTON “YASHIL VODOROD” ISHLAB CHIQARADIGAN YETAKCHI DAVLATLARDAN BIRI



O‘zbekiston dunyoda “yashil vodorod” ishlab chiqaradigan oltinchi davlatga aylandi. Prezidentimiz tashabbusiga ko‘ra, Saudiya Arabistonining “ACWA Power” kompaniyasi bilan hamkorlikda 2023-yil noyabr oyida Toshkent viloyati Chirchiq shahrida poydevori qo‘yilgan loyiha joriy yilning iyun oyida ishga tushirildi. Shu tariqa mamlakatimiz yangi sanoat mahsuloti — “yashil vodorod” hamda yashil ammiak, yashil mineral o‘g‘itlar ishlab chiqara oladigan sanoqli davlatlar qatoridan joy oldi.


Ushbu tarixiy voqelikning ahamiyatini to‘laonli anglash uchun bugungi ekologik vaziyat, muqobil energiya rivoji, dunyo miqyosida “yashil vodorod” ishlab chiqarish tarmog‘i va kelgusi istiqbollarini tahlil qilish kerak...

Davomi 2-betda

Agar O‘zbekistonda oxirgi yillarda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri qaysi desangiz, shubhasiz, elektrotexnika sanoati deb ayta olamiz. Garchi yaqin vaqtgacha bu sanoatda ishlab chiqarish deyarli bo‘lmagan. Elektrotexnika uskunalar yurtimizga, asosan, xorij davlatlaridan olib kelingani, mahalliy brend mahsulotlar esa sifat jihatidan ular bilan raqobatlasha olmaganini ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Hozir esa elektron texnika bozorida ham sifat, ham narx jihatidan afzalliklarga ega bo‘lgan o‘zimizning mahsulotlarni tanlayapmiz.

YARIMO‘TKAZGICHLAR SANOATI


Yuqori texnologik mahsulotlarimiz ham sifat, ham narx jihatidan afzalliklarga ega



Bu mubolag‘a emas. Haqiqatan, mamlakatimizda elektrotexnika sanoati shunchalik tez rivojlandiki, son bilan birga sifat ham keskin oshdi. Milliy brendlarimiz paydo bo‘lib, dunyoning ko‘plab davlatlariga eksport qilinyapti. Oxirgi 7 yilda yurtimizda elektrotexnika sohasiga 1 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritildi.

Tarmoqda 762 ta korxona ishga tushirilib, 45 turdagi yangi mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Ahamiyatlisi, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan 200 turdan ziyod elektrotexnika mahsulotlarining 195 turi xorij bozorlariga eksport qilinmoqda.

Davomi 4-betda



O'SH SHAHRIDA ALISHER NAVOIY HAYKALI OCHILDI

Tantanali marosimda O'sh shahar meri Jenishbek Toktorbayev, Xalq deputatlari O'sh shahar Kengashi raisi Bolotbek Bayetov, shahar Kengashi deputatlari, Qirg'iziston TIV xodimlari, o'zbek milliy madaniy markazlari faollari va mahalliy aholi vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda shahar meri O'zbekiston va Qirg'iziston aloqalarining bugungi holati haqida to'xtalib o'tdi. "O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov davlat rahbari sifatida ish boshlaganidan buyon ikki mamlakat va xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Bugungi kunda hamkorlik o'rnatilmagan soha qolmadi va ikki davlat rahbarlarining sa'y-harakatlari bilan ushbu do'stlik hamda strategik hamkorlik munosabatlari yuqori darajaga chiqdi", dedi Jenishbek Toktorbayev.

Xalq deputatlari O'sh shahar Kengashi raisi Bolotbek Bayetov, o'z navbatida, Navoiy merosiga hurmat va ehtirom ko'rsatish har bir turkiy xalqning burchi ekanini ta'kidladi: "Navoiyga o'rnatilgan ushbu yodgorlik mamlakatlarimiz tarixida muhim voqea bo'lib qoladi hamda o'zbek va qirg'iz xalqlari o'rtasidagi yaqin qo'shnichilik, qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi".

Anjuman davomida Bobur nomidagi O'sh shahar akademik musiqali drama teatri ijodiy jamoasi va O'sh davlat filarmoniyasi xonandalari tomonidan Navoiy hayotiga bag'ishlangan sahna ko'rinishlari hamda uning g'azallariga bastalangan mumtoz qo'shiqlar ijro etildi.

Ta'kidlash kerakki, O'sh shahrida buyuk shoir va mutafakkirga haykal o'rnatilishi butun jamoatchilik tomonidan yuksak baholandi.

"Dunyo" AA



Boshlanishi 1-betda

Bugun turli sohalarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi sheriklik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. 2022-yil 21-iyun kuni Toshkentda ikki davlat rahbarlari strategik sheriklikni chuqurlashtirish va har tomonlama hamkorlikni kengaytirish to'g'risidagi deklaratsiyani imzolagan bo'lsa, 2023-yil 22-avgust kuni Boku shahrida O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasida Oliy davlatlararo kengashni tashkil etish to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Oradan bir yil o'tib, 2024-yil 23-avgustda Toshkentda ushbu kengashning ilk yig'ilishi bo'lib o'tdi va ikki mamlakat Prezidentlari tomonidan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Shu tariqa qisqa muddatda o'zbek va ozarbayjon munosabatlari eng yuqori ittifoqchilik darajasiga chiqdi.

Davlatlararo hamkorlik va tuzilmalar doirasidagi ko'p qirrali faol muloqotlar, telefon orqali suhbatlar, oliy darajadagi uchrashuvlar o'zaro aloqalarni faollashtirishning samarali platformasini shakllantirmoqda. O'zbekiston va Ozarbayjon bugun BMT, MDH, Turkiy davlatlar tashkiloti, IHT va Qo'shilmaslik harakati kabi xalqaro tashkilotlar doirasida yaqindan hamkorlik qilib, bir-birining tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Ikki davlat qonunchilik organlarida parlamentlararo do'stlik guruhlari faoliyat ko'rsatmoqda. Delegatsiyalar almashinuvi va faol muloqotlar izchil davom etyapti.

Iqtisodiy hamkorlik sur'atlarida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Hukumatlararo qo'shma komissiya faoliyati ham ana shu maqsadga yo'naltirilgan. Hamkorlik bo'yicha ushbu komissiyaning 14 ta majlisi o'tkazildi. Uning so'nggisi joriy yil 20-iyun kuni Boku shahrida tashkil etildi. Shuningdek, 2020-yildan buyon faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston — Ozarbayjon ishbilanmonlar kengashi doirasida hozirga qadar uchta yig'ilish bo'lib o'tdi.

O'zaro savdo hajmi o'sishi iqtisodiyotlar yaqinlashuvining yorqin ko'rsatkichlaridan biri. Xususan, 2017-yildan 2024-yilgacha tovar ayirboshlash hajmi 32,4 million dollardan 253,5 million dollarga yetdi. O'tgan yilda eksport 208,1 million dollarni tashkil etib, 56 foiz o'sdi. Birgina joriy yilning yanvar-may oylarida savdo hajmi 25,2 foiz o'sib, 90,5 million dollarni, eksport esa 80,9 million dollarni tashkil etdi.

Investitsiyaviy hamkorlik ham ijobiy dinamikada. 2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra, O'zbekiston va Ozarbayjon kapitali ishtirokida 280 ta, jumladan, 58 ta qo'shma va 222 ta to'liq xorijiy korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Ular savdo, mashinasozlik va

SHERIKLIKDAN ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARIGACHA BO'LGAN ISHONCH YO'LI



Xalqaro hamkorlik



“

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini qamrab olgan investitsiyaviy hamkorlik tobora amaliy tus olmoqda. Ikki davlat investitsiya kompaniyasi umumiy qiymati 360 million dollardan ortiq bo'lgan 15 ta loyihani moliyalashtirishda ishtirok etdi.

metallarga ishlov berish, moliya va sug'urta, ko'chmas mulk, energetika, xizmat ko'rsatish, zargarlik buyumlari ishlab chiqarish, oziq-ovqat va yengil sanoat kabi qator sohalarni qamrab oladi.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini qamrab olgan investitsiyaviy hamkorlik tobora amaliy tus olmoqda. Ikki davlat investitsiya kompaniyasi umumiy qiymati 360 million dollardan ortiq bo'lgan 15 ta loyihani moliyalashtirishda ishtirok etdi.

Transport sohasida ham hamkorlik barqaror rivojlanmoqda. 2024-yilda davlatlarimiz o'rtasidagi yuk tashish hajmi 105 ming tonnani tashkil etdi. O'zbekiston yuklarining Ozarbayjon hududi orqali tranziti bir million 91 tonnadan oshdi. Bu esa mamlakatning ishonchli transport markazi sifatidagi ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Bunda aviatsiya ham muhim bo'g'indir. Toshkent va Boku o'rtasida muntazam aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgan.

Xalqaro ekspertlar ta'kidicha, Prezidentimizning Ozarbayjonga davlat tashrifi ikki tomonlama

munosabatlar tarixidagi muhim bosqich bo'ldi. Ushbu tashrif ikki davlat ham amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishga tayyor ekanini yaqqol namoyon etdi.

Oliy darajadagi muzokaralar, imzolangan bitim va erishilgan kelishuvlar savdo-iqtisodiy aloqalarni jadallashtirish, sanoat, energetika, transport-logistika va gumanitar sohalardagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish uchun muhim poydevor yaratdi.

O'zbek va ozarbayjon jamoatchiligi ushbu tarixiy tashrif natijalarini yuksak baholab, Bokuda O'zbekiston elchixonasining yangi binosi barpo etilgani hamda ikki mamlakat yetakchilari ishtirokida "O'zbekiston" bog'iga tamal toshi qo'yilganini xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalarining yana bir ramziy ifodasi sifatida e'tirof etmoqda.

Bokudagi "O'zbekiston" bog'i davlatlarimiz o'rtasidagi mustahkam do'stlik va strategik sheriklik, ittifoqchilikni aks ettiruvchi yirik madaniy loyihadir. Ozarbayjon poytaxtidagi bu bog' oddiy investitsion loyiha emas. U ikki qardosh xalq o'rtasidagi ma'naviy

yaqinlikni, o'zaro anglashuvni va madaniy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yangi bog' poytaxtning nufuzli va jadal rivojlanayotgan Oqshahar mavzesidan o'rin oldi. Loyihaga ko'ra, 4,5 gektar maydonda O'zbekistonning boy madaniyati va an'analarini namoyish etadigan ulkan majmua barpo qilinadi. Bog' hududida yurtimiz me'moriy obidalari nusxalari, sayilgohlar, yashil hududlar, mehmonxona, turli savdo va ko'ngilochar maskanlar tashkil etiladi. Binolar qurilishi va bezagida o'zbek milliy me'morchiligi an'analari hamda naqshlaridan foydalaniladi.

Bog' yiliga 800 ming dam oluvchini qabul qilish imkoniga ega. Bu esa O'zbekiston madaniy merosiga nisbatan Ozarbayjon jamoatchiligi va xorijlik mehmonlar orasida qiziqishni yanada oshirishga sabab bo'ladi. Ushbu bog' O'zbekistonning Ozarbayjondagi madaniy elchixonasiga aylanishi kutilmoqda. Uning me'moriy konsepsiyasi Buyuk ipak yo'li shaharlari — Buxoro, Samarqand va Xivaning ulug'vor qiyofasidan ilhomlanadi.

— Tashrif davomida ikki tomonlama muhim hujjatlar imzolandi, — deydi O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi boshqarma boshlig'i Amir Sultonov. — Avvalo, O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi Oliy davlatlararo kengashning ikkinchi yig'ilishi qarori qabul qilinganini qayd etish kerak. Eng muhim hujjatlardan yana biri Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomani 2025-2029-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" bo'ldi. Bunda 150 dan ortiq aniq loyihani ro'yobga chiqarishga qaratilgan sa'y-harakatlar belgilangan.

Yana bir muhim jihat. Muzokaralar chog'ida ikki tomonlama savdo va investitsiyalar hajmini yaqin yillarda 1 milliard dollarga yetkazish bo'yicha qo'shma amaliy choralar ko'rishga qaror qilindi. Savdo va kooperatsiyani rag'batlantirish bo'yicha alohida dastur qabul qilindi.

Shuningdek, ishlar samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikning amaldagi formatlari kengaytiriladi va yangilari yo'lga qo'yiladi. Masalan, Tadbirkorlar kengashi tuziladi, Sanoat va iqtisodiy zonalar forumi o'tkaziladi.

Umuman olganda, davlatimiz rahbarining Ozarbayjonga davlat tashrifi istiqbolda ikki do'st va qardosh mamlakat o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik hamda hamkorlik munosabatlarini yanada jadal rivojlantirishga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'ZBEKISTON “YASHIL VODOROD” ISHLAB CHIQUARADIGAN YETAKCHI DAVLATLARDAN BIRI



Taraqqiyot odimlari

Boshlanishi 1-betda

Ekologik muammolar tarixi insoniyat ilk sivilizatsiyasi davrlariga borib taqaladi. Ya'ni tabiat bilan munosabatlarda ko'pincha ehtiyotsizlikka yo'l qo'yamiz va natijada me'yoriy izdan chiqadi. Masalan, bundan 3700 yil oldin qadimgi Mesopotamiya aholisi soni ortishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab kuchayadi. U yerda yashaydigan shumerlar esa tez va ko'p ekin yetishtirish maqsadida dalalarni keragidan ortiq sug'oradi. Bu esa tuproqning sho'rlanishi, unumsiz va yaroqsiz holga kelib qolishiga sabab bo'ladi. O'rta asrlarda esa Angliyada me'yoriydan ortiq ko'mir yoqilishi natijasida havo ifloslanishi darajasi karrasiga ortib ketgan.

Dunyo miqyosida tabiatga insonning salbiy ta'siri kuchaya boshlagan nuqta XVIII asrdagi sanoat inqilobidir. Keyingi yuz-ikki yuz yil ichida barpo etilgan yirik zavod va fabrikalar, sanoat korxonalari yuksak iqtisodiy yutuqlarga zamin yaratish, ishlab chiqarish qamrovini ortib, insoniyat ehtiyojini qondirish bilan birga asosiy quvvat manbai sifatida neft, ko'mir, gaz kabi ekologiyaga zararli yoqilg'idan foydalanishi oqibatida azon qatlami yemirilishi, atrof-muhit ifloslanishi, keskin iqlim o'zgarishi kabi global muammolarni yuzaga keltirdi.

Ayniqsa, keyingi yillarda dunyoning turli mintaqalarida havo haroratining keskin ortib ketishi yoki aksincha, tushishi, suv taqchilligi, shaharlarda havo ifloslanish darajasining ko'tarilishi, yashil maydonlarning yil sayin kamayib borishi ekologik muammolar haqida chuqur bosh qotirish kerak ekanini ko'rsatdi.

Dunyo olimlari, ekspertlar bu muammoning eng oqilona yechimlaridan biri sifatida kundalik turmush, qishloq xo'jaligi, sanoat korxonalarida atmosfera zaharli is gazi chiqaradigan neft, gaz, ko'mir mahsulotlaridan yoqilg'i sifatida foydalanishni kamaytirish, bosqichma-bosqich qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushini o'ttirish ekanini qayd etmoqda. Shuningdek, ushbu energiya vositalarining eng katta afzalligi tugamaydigan manbalar sirasiga kirishidir.

Bu borada dunyo miqyosida jadal sur'atda o'sish kuzatilmoqda. Xalqaro energetika agentligi (XEA) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil qayta tiklanadigan energiya manbalarining elektr ishlab chiqarishdagi ulushi 29 foizdan 35 foizga o'tishi kutilmoqda. O'zbekistonda ham muqobil energiya manbalariga tayangan "yashil

iqtisodiyot"ga o'tish borasida tizimli, ortga qaytmas islohotlar olib borilmoqda. 2025-yilning "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili" deb nomlanishi ham masalaga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganini anglatadi. E'tiborlisi, yurtimizda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini joriy yilda elektr energiya ishlab chiqarishda 26 foiz, 2027-yildan 30 foiz, 2030-yildan 55 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Arzon, xavfsiz va ekologik toza yoqilg'i

Raqamlarga ortiqcha urg'u berishning hojati yo'q. Guvohi bo'layotganingizdek, hozir kundalik hayotimizda qayta tiklanuvchi energiya vositalaridan faol foydalanilmoqda. Jumladan, ko'chalarda turli rumumdagi elektromobillar soni ortyapti. Yo'l bo'yidagi chiroqlar, uylar, maktab, bog'cha, shifoxonalar quyosh panellari bilan yoritilyapti. Vodi, qir-adirlarda yirik shamol elektrotansiyalari barpo etilmoqda. Aholi muqobil energiyaning foydasini sezgach, arzon va qulayligi uchun undan foydalanishni tanlayapti. Hukumat ekologiyaga zararsiz manbalaridan foydalanayotgan yurtdoshlarimiz va tadbirkorlarni subsidiya ajratish, turli imtiyozlar berish orqali qo'llab-quvvatlamogda. Bu esa ularning yanada ommalashishiga zamin yaratyapti.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bugun nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda muqobil energiya ishlab chiqarish va uni ommalashtirish eng muhim masalalardan biri bo'lib turibdi. Lekin dunyo tajribasi ayrim sohalarda neft, ko'mir, gaz yoqilg'ilarini butunlay muqobil energiya bilan almashtirish imkonsiz ekanini ko'rsatmoqda. Xususan, xalqaro tranzit — kema va samolyotlarda hali ham an'anaviy energiya manbalaridan foydalanilmoqda. Shuningdek, yirik sanoat korxonalarini uchun katta quvvat zarur bo'lishi sababli bu sohalarni muqobil energiya vositalari keng qamrab ololmayapti. Ularni uzoq

“

“ACWA Power” kompaniyasining 88 million dollarlik investitsiyasi bilan barpo etilgan mazkur zavod birinchi bosqich, ya'ni joriy yilda 3 ming tonnadan "yashil vodorod" ishlab chiqarish quvvatiga ega. Yana bir jihat, zavodning 95 foiz ishchilari xorijda malaka oshirib kelgan mahalliy mutaxassislardir, ular orasida Dubay shahrida malaka oshirgan kollej bitiruvchilari ham bor.

muddat saqlab turish, katta hajmda bir joydan boshqa joyga ko'chirishdagi noqulayliklar barcha tarmoqni birdek qamrab olishga yo'l bermayapti.

Bu muammoni esa muqobil energiya vositasi yordamida ishlab chiqariladigan "yashil vodorod" yoqilg'isi hal etadi. U ekologik toza, arzon va xavfsiz mahsulot bo'lib, yuqoridagi noqulayliklarga sabab bo'lmaydi.

Eng avvalo, "yashil vodorod" nima ekanini bilib olishimiz zarur. Aslida, uch xil: "kulrang vodorod", "ko'k vodorod" va "yashil vodorod" yoqilg'ilari mavjud. Ularning barchasi kundalik hayotda energiya manbai sifatida ishlatiladi. Suvdan vodorodni ajratib olishda qaysi usuldan foydalanishiga qarab, ular bir-biridan farq qiladi. Masalan, "kulrang vodorod" suvdan ko'mir va metan gazi orqali ajratib olinadi. "Ko'k vodorod" ham an'anaviy energiya manbalari sarf etilgan holda ajratib olinib, turli texnologiyalar bilan ishlov beriladi.

"Yashil vodorod" esa suvdan muqobil energiya vositalari quvvatiga tayangan holda ajratib olinadi va shuning uchun ham ekologiyaga

mutlaqo zararsiz hisoblanadi. "Yashil vodorod" yoqilg'isi ishlatilganda suv bug'i ajralib chiqadi, bug' ham tabiatga salbiy ta'sir o'tkazmaydi. Shu bois, bugun dunyo mamlakatlarida "yashil vodorod" ishlab chiqarish va undan turli sohalarda foydalanishni kengaytirishga katta urg'u berilmoqda. Ayni paytda faqatgina oltita davlatda "yashil vodorod" ishlab chiqaradigan zavodlar bo'lsa, ko'pgina davlatlarda bu yo'nalishda yangidan yangi loyihalar ishga tushirilish arafasida.

Xususan, 2025-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosida quyosh panellari bilan ishlaydigan "yashil vodorod" yoqilg'isini ajratib oladigan zavodlar quvvati 3,2 gigavatt bo'lsa, hayotga tatbiq etilishi kutilayotgan loyihalar quvvati 10,5 gigavattga teng. Shamol energiyasiga tayanganlarining quvvati 2,1 gigavatt, ishga tushirilishi kutilayotganlariniki esa 12,6 gigavattni tashkil etadi. Raqamlardan ham "yashil vodorod" ishlab chiqarish kelajak sohasi ekanini anglash mumkin.

vodorod" yoqilg'isi ishlab chiqarish sohasida yetakchilikni o'z qo'lga olishga urinmoqda.

Quvonarlisi, davlatimiz rahbarining oqilona siyosati natijasida biz ham bugungi kunda "yashil vodorod" ishlab chiqaradigan sanoqli mamlakatlardan biriga aylandik.

Yaqin kelajakda
avtomobillarimiz suv
yordamida yursa, ne ajab

"Bu mashina suvda emas, benzinda yuradi" degan iborani kundalik hayotimizda ko'p bor eshitganmiz. Balki qachondir xayolingizdan "Nahotki suv vositasida harakatlanadigan transport yaratishning imkonlari bo'lmasa?" degan fikr o'tgandir. Bugun ham avtomobillar suvda yura olmaydi, ammo qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida suvdan olinadigan "yashil vodorod"da harakatlantirish mumkin.

Chirchiq shahridagi "Yashil vodorod" ishlab chiqarish zavodi esa kelgusida bizga ham bu imkoniyatni beradi. "ACWA Power" kompaniyasining 88 million dollarlik investitsiyasi bilan barpo etilgan mazkur zavod birinchi bosqich, ya'ni joriy yilda 3 ming tonna "yashil vodorod" ishlab chiqarish quvvatiga ega. Yana bir jihat, zavodning 95 foiz ishchilari xorijda malaka oshirib kelgan mahalliy mutaxassislardir, ular orasida Dubay shahrida malaka oshirgan kollej bitiruvchilari ham bor.

Zavodda faqat "yashil vodorod" yoqilg'isidan foydalanib, shu turkumga kiruvchi yashil ammiak va mineral o'g'itlar ham tayyorlanadi, ushbu mahsulotlarni xorijga eksport qilish rejalashtirilmoqda.

— Zavodning yillik ishlab chiqarish quvvati 3 ming tonna "yashil vodorod" hamda uni qayta ishlash orqali 30 ming tonna yashil mineral o'g'itlar tayyorlashga teng, — deydi "O'zbekimyo sanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi Odil Temirov. — Bundan tashqari, yashil ammiak va yashil mineral o'g'itlarni eksport qilish, jahon va Yevropa bozorlariga olib chiqish uchun ayni paytda mahsulotni sertifikatlash ishlari ham olib borilmoqda. Dunyoda bu mahsulotlarga talab yil sayin ortib boryapti. Sababi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda yashil mineral o'g'itlardan foydalanish raqobatbardoshlikni oshirishga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, "yashil vodorod", "yashil" mineral o'g'itlar ishlab chiqarish iqtisodiyotimizga katta foyda keltiradi. Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalariga bu mahsulotlarni tatbiq qilish tarmoqlarni karrasiga rivojlantirishga hissa qo'shadi. Jahon bozorida bu mahsulotlarga talab yuqori ekanlari esa uni sotishdan ham mo'ay daromad olish mumkinligini bildiradi. Ushbu mahsulotlarning tayyorlanishi va foydalanilishida ekologiyaga zarur yetkazmaslik, arzonlik va xavfsizlik ustuvorligi ularning qadriini yanada o'tirtiradi.

Sanjar ESHMURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



BUYUK MAQSDAD SARI ELTUVCHI MASH'AL

MAKTABGACHA TA'LIM SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR SAMARASI

Boshlanishi 1-betda

Minajatdin QUTLIMURATOV
(Qoraqalpog'iston Respublikasi):

— Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi yangilanishlar hayotimizda juda katta o'zgarish yasadi. Bu haqda bafurja gaplashamiz... Hozir qamrov masalasiga to'xtalmoqchi edim. Davlatimiz rahbari shu yilning 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishini o'tkazgandi. Unda ta'kidlanishicha, so'nggi yetti yilda bog'chalar bilan qamrov 700 mingdan 2,3 millionga yetkazilgan. Bugun yurtimizda 7 mingta davlat va 31 mingdan ziyod xususiy bog'cha faoliyat yuritayotir.

Bu raqamlar ortida inson taqdiri, qanchadan qancha odamlar quvonchi bor. Mazkur o'zgarishlar sabab eng chekka ovul va qishloqlarda ham bolalar bog'chaga boryapti. Masalan, "Qiziljar" ovul fuqarolar yig'ini Mo'ynoq tumani markazidan 85 kilometr uzoqda joylashgan. Erkaboy Umarov o'sha ovuldagi maktabda boshlang'ich sinflarga dars beradi. Uning aytishicha, birinchi sinf o'quvchilariga dars o'tishga doim qiyналgan. Chunki bolalar

Yangilanishlar xaritasi



maktabga ko'nikmaga ega bo'lmay kelgan. O'zgarishlar sabab Erkaboy bu muammoga yechim topdi. Uyida 22 o'rinni bog'cha ochdi, besh kishini ish bilan ta'minladi. Bugun u nafaqat pedagog, balki tadbirkor ham. Hozir bog'chada faqat bitta guruh tarbiyalanayapti. Ehtiyojdan kelib chiqib, kelajakda guruhlarni yanada ko'paytirishni maqsad qilgan. Bir paytlar olis ovuldagi odamlar, ayniqsa, yoshlar

katta shaharga ko'chib ketardi. Shu bois, ularga tadbirkorlik begona edi. Endi qarashlar o'zgardi. Chekka ovullarga ham hayot nafasi kirib bordi. Odamlar yaratuvchanlik ruhida yashayapti. Qahramonimiz Erkaboy ham kelajakda Qiziljar ovulida xususiy maktabini ochmoqchi.

— Nabiram bir yildan beri bog'chaga qatnaydi. Xat-savodi chiqib qoldi. Bu yerda mashg'ulotlarni o'z vaqtida bajaradi, uxlab dam oladi. Ota-ona sifatida bunday imkoniyatdan xursandmiz, — deydi Mo'ynoq tumani "Qiziljar" ovul fuqarolar yig'iniida yashaydigan Oltinul Pirmag'abetova. — Ilgari tuman markazidagi bog'chaga qatnardi. O'lis yo'l, kuzda yomg'ir, yozda issiq, qishda sovuq suyakdan o'tadi. Qatnash azob edi. Shuning uchun bog'chaga borishdan bormaslik ko'p bo'lardi. Bunday pala-partishlik bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladi. Muammo yechim topdi. Bolalar har kuni bog'chaga boryapti. Ular ishonchli qo'llarda bilim olyapti. Natijada onalar uy yumushlarini bemalol bajarib, o'ziga qarashga ham vaqt topyapti.

Uzoq yillar bog'cha masalasi og'riqli nuqtamiz edi. Sohadagi o'zgarishlar, xususiy sektorga ham yo'l ochilgani tub burilishga sabab bo'ldi.

Shamsiyeva. — Qizim emaklamasdi, joyidan turmas, bo'yini ham ko'tarolmasdi. Yaqinlarim tavsiyasi bilan shu yerda reabilitatsiya muolajalarini olishni boshladik. Hozir qizim emaklab yurishga intilyapti. Ona uchun bola sog'lig'idani ortiq baxt yo'qi!

Albatta, olis yo'l bosib, bemor bola bilan shifo maskaniga qatnash mashaqqat. Iqtisodiy yetishmovchilik bo'lsa, yanada mushkul. Bunga ham ijobiy yechim topilgan. Stasionar sharoitda bolalar olib qolinadi. Kunduzgi rejimdagilar kunlik kelib ketadi.

— Muassasamizda psixolog, defektolog, suzish va jismoniy davolash yo'riqchilari, ko'z kasalliklari va boshqa yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar bolalarga sifati tibbiy xizmat ko'rsatayapti, — deydi "Umid" reabilitatsiya markaziga ega davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori Dilafruz Fayziyeva.

— Pedagoglar orasida surdo bo'yicha mutaxassislar ham bor. Ular eshitishi va gapirishida nuqsonli bolalarga ta'lim beradi.

Muassasada har bir bola alohida mehr va parvarish oladi, kasalligidan kelib chiqib, alohida muolaja qilinadi. Joriy yilda 13 bola 7 yoshga to'lib, bog'cha bilan xayrlashdi. Ularning 6 nafari umumiy turdagi maktablarda darslarni davom ettiradi. Bolalarning jismoniy holatini hisobga olsak, bu juda quvonarli. Ha, mazkur MTM sabab orzulari ushlab, hayotsevarlik ruhi kuchaymoqda.



G'olib ABDUSALOMOV
(Navoiy viloyati):

— Minajatdin og'a, olis qishloqlarda bog'cha ochilganini to'g'ri e'tirof etdingiz. Bu katta o'zgarish. Avval shaharlarda ham bog'cha muammo edi. Sanoqlik bo'chalarida turnaqator navbatda turardi. Bu korruptsiyaga ham zamin yaratgani bor gap. O'nlayn ro'yxatdan o'tish tizimi yaratildi. Tag'in MTNning mazmun-mohiyati butunlay o'zgarib, ta'limda sifatga jiddiy e'tibor berilyapti.

Ilgari maktab ko'rmagan bolaning harf

Rasuljon KAMOLOV
(Farg'ona viloyati):

— Soha keskin rivojlandi. Nafaqat shahar va tuman markazlari, balki chekka qishloq va mahallalarda mukammal shart-sharoitga ega bog'chalar qurilyapti. Yangi O'zbekistonning qiyofasi bog'chalar orqali namoyon bo'lmoqda. Shu bois, yangi qurilayotgan uy-joy, massivlarda MTTLar barpo etishga jiddiy e'tibor berilyapti. Masalan, Farg'ona tumanidagi Ilg'or massivida namunaviy loyiha asosida yangi uyqlar qad rostladi. Ilk qulaylik sifatida bog'cha qurildi. Uni "Shohida Muzaffar yuksalish" mas'uliyati cheklangan jamiyati davlat-xususiy sheriklik asosida barpo etdi.

— Bugun ota-onalar farzandini o'ziga ma'qul bo'lgan, har jihatdan qulay bog'chaga berishni istaydi, — deydi tadbirkor Munojatxon Rasulova. — Biz tashkil etgan "Kelajak avlod" maktabgacha ta'lim tashkiloti eng ilg'or ish uslublaridan andaza olib faoliyat yuritmoqda. Zamonaviy bog'cha 150 bolajonni bag'ri olgan. Unda ingliz, rus tillaridan dastlabki saboq beriladi. Kichikintoylar dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan boshqa mashg'ulotlar ham o'tiladi. Bog'chada tibbiy xizmat yo'lga qo'yilgan, sport mashg'ulotlari tashkil etilgan. Bu ota-onalarni mamnun etmoqda.

Yana bir ma'lumot. Qo'shtepa tumanidagi Dehqonobod qishlog'i markazdan 15 chaqirim uzoqda. Qishloq aholisi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik bilan tirikchilik qiladi. Shu kunga qadar qishloqda bog'cha bo'lmagan. Imkon topganlar uzoq yo'l bosib, tuman markazi yoki qo'shni qishloqlardagi MTTLarga bolalarini olib borgan. Qishloq markazida 180 o'rinni zamonaviy bog'cha qurildi. Birgina bog'cha sabab 30 ta yangi ish o'rni ochildi.

— Kelin bo'lib tushganimga 40-yil bo'ldi, — deydi Layloxon Sohibnazarova. — Shuncha yildan buyon

Farhod NE'MATOV
(Jizzax viloyati):

— Rasuljon aka, juda muhim masalalarni o'rtaga tashladingiz. Soha mutaxassislari ishli bo'ldi. Ha, biz yillar davomida mutaxassislarni o'qitdik, lekin ish o'rni yaratmadik. Endi boy berilgan imkoniyatlar o'rinni qoplash fursati yetdi. Hozir sizlarga ana shunday qahramonlardan birining hikoyasini aytib bermoqchiman. Qahramonimiz shu soha bo'yicha oliy ma'lumot olgan. Ammo muayyan muddat ishlamagan. U Forish tumanidagi 8-MTT mudirasi Munisa Xolbekovadir. Uning ta'kidlashicha, Guliston davlat universitetining maktabgacha ta'lim yo'nalishiga hujjat

topshirganida yaqinlari hayratlanib: "Qishlog'ingda bog'cha yo'q, keyin qayerda ishlaysan?" deb so'ragan ekan.

Darhaqiqat, o'sha vaqtda chekka qishloqda MTM ochilishini hech kim tasavvur qilmagan. Lekin hayot o'zgardi. So'nggi yillardagi o'zgarishlar, ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor natijasida barcha hududlarda bog'cha barpo etildi. Munisa Xolbekova kabi ko'plab yoshlar uchun ishlash imkoniyati yaratildi.

— Hozir bu yerda 60 bola ta'lim-tarbiya olyapti, — deydi qahramonimiz Munisa Xolbekova. — Ota-onalar, ayniqsa, qishlog'imizdagi uchta maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchilari juda mamnun. Ular bolalarning maktabga o'qish-yozishni o'rganib, ko'nikma bilan kelayotganini ta'kidlamog'da. Bolalar nafaqat

o'qish yoki yozish, balki tinglash, gapirish, atrof-muhitni anglash ko'nikmalarini ham puxta o'zlashtiryapti. Dastlab ota-onalar o'rganmagani uchun bolalarini bog'chaga berishga qiziqmadi. Bog'chaga borgan va bormagan bolalarning maktabda ajralib qolgan, yurish-turishi, darslarni o'zlashtirishdagi tafovutlar yaqqol ko'rinib qoldi. Qolaversa, bog'chalar onalar uchun katta imkoniyat bo'ldi. Ilgari qishlog'imizdagi ko'p ayollar bolaga qarash va uy yumushidan ortmasdi. Hozir ishlab, oilasiga daromad keltiryapti. Ish o'rni masalasida ham yaxshi imkoniyat tug'ildi. Qishlog'imizdagi tashlandiq yer ishga solindi. Hozir u yerda poliz, sabzavot mahsulotlari yetishtirilib, xorijga eksport qilinayapti. Shu orqali qo'shni qishloqlar aholisi ham ish bilan ta'minlandi. Onalar bolalarini bizga ishonib, o'zlari xotirjam ishlayapti.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Akbar RAHMONOV
(Qashqadaryo viloyati):

— G'olib aka, to'g'ri aytidingiz, ilgari odamlar majbur bo'lmasa, bolalarini bog'chaga olib bormasdi. Birinchidan, sig'im yetarli emasdi. Aytganingizdai, turnaqator navbat edi. Ikkinchidan, bino, moddiy-texnik baza talabga javob bermasdi. Bitta misol, G'uzor tumanidagi 13-MTT ancha yillar oldin tashkil etilgan. O'shanda qishloq ahli kichik bo'lsa-da, bog'cha ochilganidan quvongan. Aslida, bir qavatli binoda sharoit haminqadar edi. Qisqasi,

ota-onalar majbur bo'lgani uchun bolalarini shu bog'chaga bergan. Shunday bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan 13-MTT bolalarning sevimli maskaniga aylandi. Ammo besh-olti yil o'tmay, binoning isitish tizimi ishdan chiqdi. So'ng kanalizatsiya yaroqsiz bo'lib qoldi. Ma'muriyat bor imkoniyatdan foydalanishga urinar, shunda ham qish qo'rquv va xavotir fasliga aylangan edi. Chunki xonalar qo'lbola pechda isitilardi. Bu orada qo'shni qishloqlarda ham ikkita yangi bog'cha qad rostlaydi. Afsuski, bu ikki muassasa binosi ham ko'pga bormadi. Yaroqsiz bo'lib qoldi. MTTLar faoliyatini davom ettirishga harakat qildi, ammo bu imkonsiz edi. — O'shanda faqat bizning bog'cha hashar yo'li bilan ta'mirlandi, — deydi G'uzor tumanidagi 13-maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori Nilufar Jo'rayeva. — O'zim shu yerda ko'p yillar tarbiyachi bo'lganman. Qishda sovuq, yozda issiq xonada ishlash azob. Gohida sharoit yo'qligidan bolalar uch-to'rt kunlik ta'tilga ketardi. Ayniqsa, qishda qiyin edi. Har kuni bolalar qo'lbola pechkaga yaqin borib jarohatlanmasin degan xavotirda o'tirardik. Birov holing ne demasdi. Mas'ul idoralarga

ko'p murojaat qildik. Har safar "O'rganyapmiz, dasturga kiritamiz", degan javob olardik. Shukr, 2019-yilda yarim asrlik orzumiz amalga oshdi. Yangi zamonaviy bino qurib berildi. Endi barcha sharoit bor. Zamonaviy isitish, sovutish tizimlari mavjud. Ikki qavatli bino xonalari yorug' va shinam. Bolalar erkin, quvnbay yuradi. Ularning timsolida yangi O'zbekistonning baxti kelajagini ko'raman. Yana bir gap. Bizga yaqin hududda joylashgan 29, 32-MTTlarga ham o'tgan yillar davomida yangi bino qurib berildi. Ular yangidan ish boshladi. Shu tariqa hududdagi barcha bolalar MTTLga to'liq qamrab olindi.

Qashqadaryoda bolalarini bog'chaga qamrab olish keskin oshdi. Bir paytlar ota-onalarni bolalarni bog'chaga beraymi yoki yo'q degan savol qiyinagan bo'lsa, bugun qay birini tanlayin degan so'roq qarshisida bosh qotirmog'da. Bu qisqa vaqtda juda katta o'sish degani. Negaki yangi O'zbekistonda bolalarni MTTLarga qamrab olish davlat siyosati darajasida ko'rilyapti. Ayni o'zgarishlar shunchaki raqamlarni yuqori ko'rsatkichga chiqarishga emas, tom ma'noda xalqni rozi qilishga qaratilgan.

Sarvar TO'RAYEV
(Surxondaryo viloyati):

— Farhod aka, bog'cha sabab onalar imkoniyati kengaygani, tashlandiq joyda ish o'rni yaratilgani haqida aytidingiz. Buni elimiz yo'qdan yo'ndirish deydi. Ana shu yo'q joydan imkon topishga Surxondaryo misolida bir-ikki og'iz fikr aytam. Masalan, "Aqlvoy" avtobuslari. Bu Surxondaryo singari hududi katta va geografik joylashuviga ko'ra tog'lar va pasttekisliklardan iborat hudud uchun muhim ahamiyat kasb etadi. "Aqlvoy" avtobusi olis hududdagi bolalarini maktabgacha ta'limga qamrab olishdagi o'ziga xos usul deyish mumkin. — "Aqlvoy" avtobuslari bog'chasi yo'q olis hududlarga borib, bolalarga bepul ta'lim-tarbiya berishga mo'ljallangan, — deydi Surxondaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bo'lim boshlig'i Xosiyat Boboqulova. — Yaqin kunlarda Bandixon tumanining Chinor va O'rg'ilsoy mahallalari bolalar uchun "Aqlvoy" mobil MTM faoliyatini boshlaydi. "Isuzu" rusumidagi avtobus zamonaviy jihozlanib, bolalarga moslashtirilgan. U 96 bolaga xizmat ko'rsatadi. Mobil bog'cha nafaqat hududdagi bolalar uchun qulay sharoit yaratadi, balki MTM ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

"Aqlvoy" avtobuslari bog'chaning muqobil turidir. U bog'chalar qamrovini oshirishga xizmat qiladi. Bu tashabbus Prezidentimizning 2021-yil 10-iyundagi "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

Bugun vohada jami 11 ta "Aqlvoy" avtobusida 21 ta mobil guruh bor. Ular tog'li Oltinsoy, Qumqo'rg'on, Bandixon, Denov va Uzun tumanlarida istiqomat qilayotgan bolajonlarga xizmat qilaypti. "Aqlvoy" avtobusi quyosh energiyasidan quvvatlanadigan sovitkich, hojatxona va hokazolar bilan jihozlangan, unda "Soya teatri" ham tashkil etilgan.

— "Soya teatri" qo'g'irchoq teatrining o'ziga xos turi. Unda qo'g'irchoqlar emas, balki shakllardan iborat o'yinchoqlar



yoki odamlar rol o'ynaydi. Tomoshabinga ekranda qahramonlarning soyasi ko'rsatiladi, — deydi viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i birinchi o'rinbosari Bekzod Toshpo'latov. — Shu orqali eng chekka hududlarda yashaydigan bolajonlarning tasavvurlarini kengaytirish, ma'naviy-ma'rifiy horidiq chiqarishini ta'minlayapmiz.

Ochiqcha gaplashayotgan ekanmiz, bir jihatga e'tibor bersak. Ilgari biror muammoni hal etishdan ko'ra uring imkonsizligini isbotlashga ko'proq ung'u berilardi. Bugun real islohotlar amalga oshirilyapti. Buni "Aqlvoy" misolida ham ko'rish mumkin. Izlagan imkon topar deb shuni aytishsa kerak. Masalan, bu qishloqda bola kam, bog'cha qurish o'zini oqlamaydi deb mas'uliyatni zimmadan soqit qilish ham mumkin edi! Lekin yangi O'zbekistonda bunday bo'lmaydi. Chunki hammaga teng imkoniyat yaratish, inson qadriini ulug'lash bosh maqsad qilib olingan. Marrani baland olib, Uchinchi Rennessans sari dadil odimlayotgan mamlakatda ayni yo'l tutilishi tabiiy, nazariyda. Zero, chuqur ilmiy salohiyat va yuksak tafakkurga ega xalq har qanday to'siqlarni yengib, baland natijalarga erisha oladi. Ilm poydevori esa bog'chalarda qo'yiladi. Shu ma'noda, yangi O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tashkilotlari buyuk maqsad yo'lidagi mash'alimizdir!

Suhbatni Boboravshan G'OZIDDINOV uyushtirdi.

YARIMO‘TKAZGICHLAR SANOATI

Boshlanishi 1-betda

Mazkur soha rivoji, unda chiqarilayotgan mahsulotlar ko‘payishi o‘z-o‘zidan elektrotexnika uskunolari uchun zarur bo‘ladigan boshqa jihozlar quvvati oshishiga ham xizmat qiladi. Masalan, dunyoda birgina elektromobillarga talab o‘rtishi ortidan unga zarur bo‘ladigan detallar, uskunalar, qolaversa, quvvatlash stansiyalari ishlab chiqaruvchi yuzlab korxonalar ish boshlayotgani buning isboti. Tarmoq ortidan mikroelektrotexnika, ya‘ni kichik hajmdagi elektron uskunalar ishlab chiqarish sanoati rivojlanib, yangi bozor paydo bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda ham bu jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ya‘ni mahalliylashtirish iqtisodiyot rivojida asosiy vazifalardan biriga aylangan. Aksar turdagi elektrotexnika mahsulotlari to‘liq o‘zimizda ishlab chiqarilayapti. Hatto elektromobil ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilib, uning muayyan foizi mahalliylashtirildi. Shu turdagi avtomobillarni quvvatlash stansiyalari ham faqat Xitoydan import qilinmayapti, mahalliy zavodlarimizda ishlab chiqarilayapti. Mahalliylashtirishning afzalligi esa narxdagina emas, balki xizmat ko‘rsatish sifati, ishlab chiqarish quvvatlari oshishi, aholi bandligini ta‘minlash kabi ko‘plab omillarda kuzatiladi.

Elektrotexnika sanoati rivojlanishi ortidan talab oshib borayotgan detallardan biri yarimo‘tkazgichlar sanaladi. Buni “chip”lar deb ham atashadi. Ilmiy manbalarda esa yarimo‘tkazgichlar elektr tokini yaxshi o‘tkazuvchi moddalar va elektr tokini amalda o‘tkazmaydigan moddalar orasidagi oraliq vaziyatni egallaydigan moddalar deb ta‘riflanadi. Aksariyat “aqlii” texnologiyalarning asosiy va muhim qismini yarimo‘tkazgichlar tashkil etadi. Ya‘ni ushbu kichikkina detal avtomobilsozlik, elektrotexnika jihozlari, maishiy texnika qurilmalarining “miya”si bo‘lib, funksional jarayonlarning bir maromda ishlashini ta‘minlaydi.

Ayniqsa, avtomobilsozlik sanoatini yarimo‘tkazgichlaris tasavvur qilish qiyin. Bunga pandemiya davrida guvoh bo‘ldik. Avvaliga pandemiya va lokdaun davrida ishini to‘xtatib, chiplarga buyurtmalarini qisqartirgan avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar keyinroq ishlab chiqarishdagi kechikishlar sabab yarimo‘tkazgichlar tanqisligiga duch keldi. Bunday kichik, ammo o‘rmini almashtirib bo‘lmaydigan detal yetishmasligi avtomobil ishlab chiqaruvchilar uchun jiddiy oqibatlarni yuzaga keltirdi. Hatto dunyodagi eng yirik avtomobilsozlik sanoati vakillarining aksariyati yarimo‘tkazgichlarning tanqisligi sabab Osiyo, Yevropa va Shimoliy Amerikadagi zavodlari faoliyatini to‘xtatib turishga majbur bo‘lgani sir emas.

Yuqori texnologik mahsulotlarimiz ham sifat, ham narx jihatidan afzalliklarga ega



Elektron qurilma va gadjetlar ishlab chiqaruvchilar uchun ham chiplar muhim ahamiyatga ega. Umuman, zamonaviy dunyoda inson yarimo‘tkazgichlar orasida yashayapti, desak xato bo‘lmaydi. Ularni kompyuter, mobil telefon, “aqlii” soat, elektromobil, maishiy texnika va hatto LED chiroqlarda ham uchratish mumkin. Yarimo‘tkazgichlar iqtisodiyotning barcha sohalariga keng kirib borib, yangi tarmoqlar yuzaga kelishiga turtki bo‘lmoqda.

Tarmoq rivojida ilmiy tadqiqotlarning roli

Yurtimizda elektrotexnika, avtomobilsozlik sanoati rivojlanib borishi ortidan yarimo‘tkazgichlarga talab yanada oshgan. Aniqlik, ushbu sanoatni rivojlantirish zarurati yuzaga keldi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yili mamlakatimizda 399 ming 327 ta yengil avtomobil, 3,6 mingta yuk avtomobili ishlab chiqarilgan va bu ko‘rsatkich zamonaviy elektromobillarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu raqamlarning o‘ziyoq yurtimizda yarimo‘tkazgichlar katta bozorga ega ekanini ko‘rsatadi.

Amam mavjud talabni e‘tiborga olganda, hozircha yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarish

“Xitoyda yarimo‘tkazgichlar sohasi taraqqiyoti 2014-yilda integral sxemalar sanoatini rivojlantirish milliy infratuzilmasi dasturi qabul qilingandan so‘ng yangi bosqichga chiqdi. Mazkur dasturni amalga oshirish bo‘yicha Xitoy davlat miqyosida ikkita muhim hujjatni qabul qilib, 2014-yili milliy yarimo‘tkazgichlar sanoatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar va 2015-yili “Xitoyda ishlab chiqarilgan — 2025” dasturini tasdiqladi.

ehtiyojni to‘la qoplamaydi. Shu bois, sohani yanada rivojlantirish hamda zamonaviy yarimo‘tkazgichlar va mikrosxemalar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan istiqbolli tashabbuslar belgilab berilgan. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, zamonaviy, jahon standartlariga mos infratuzilmani barpo etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa, Malayziya va Koreya Respublikasi kabi rivojlangan davlatlar bilan hamkorlik kengaygan. Ular ishtirokida istiqbolli investitsion loyihalarni yaratish, amaliyotda jahon standartlariga mos mikroelektronika mahsulotlari tayyorlashga yo‘naltirish imkoniyatlarini baholash, bozor talabiga javob beradigan mikrosxemalar ishlab chiqarish quvvatlarini aniqlash choralarini ko‘rilmogda.

Dunyo iqtisodiyotida yarimo‘tkazgichlar

sanoati istiqbolli va yuqori daromad keltiruvchi yo‘nalishlardan biri sanaladi. O‘tgan yili jahon miqyosida yarimo‘tkazgichlar savdosi taxminan 627 milliard dollarni tashkil etgan. 2040-yilga borib dunyoda yarimo‘tkazgichlardan tushadigan daromad 1,7-2 trillion dollar, olinadigan foyda esa 600 milliard dollargacha bo‘lishi kutilmoqda.

Hozirgi kunda yarimo‘tkazgichlar sohasida jahon bozorida 20 dan ortiq davlat yetakchilik qilmoqda, shundan Osiyo mamlakatlari, ayniqsa, salmoqli o‘ringa ega. Bularga Koreya Respublikasi, Tayvan, Yaponiya, Xitoy, Malayziyani kiritish mumkin. Ushbu yo‘nalishda ana shu davlatlar bilan faol hamkorlikka kirishayotganimiz boisi shunda.

Masalan, dunyoda mikrosxemalarni

tarmoqlardan biri sanaladi. O‘tgan yili yalpi ichki mahsulot hajmi 18,4 trillion dollarni tashkil etgan ushbu mamlakat eksportida yuqori texnologik tovarlar ulushi ortib borib, mazkur toifadagi tovarlar qatorida elektromobillar, 3D printerlar va sanoat robotlari salmog‘i oshmoqda. Bu davrda Xitoy bozorida yarimo‘tkazgichlar hajmi 186,5 milliard dollarga yetib, jahon bozori hajmining 30 foizini tashkil etdi.

Xitoyda yarimo‘tkazgichlar sohasi taraqqiyoti 2014-yilda integral sxemalar sanoatini rivojlantirish milliy infratuzilmasi dasturi qabul qilingandan so‘ng yangi bosqichga chiqdi. Mazkur dasturni amalga oshirish bo‘yicha Xitoy davlat miqyosida ikkita muhim hujjatni qabul qilib, 2014-yili milliy yarimo‘tkazgichlar sanoatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar va



yig‘ish, sinovdan o‘tkazish va qadoqlash operatsiyalarining 13 foizi Malayziya hissasiga to‘g‘ri keladi. Hozir Malayziya jahon yarimo‘tkazgichlar bozorining qariyb 7 foizini egallamoqda. Ushbu davlat strategik investitsiyalar hamda mikrochiplarni loyihalashdagi yutuqlar orqali 2029-yilga kelib yarimo‘tkazgichlar bozoridagi ulushini ikki baravar oshirgan holda 14 foizga yetkazishni maqsad qilgan.

Bu yo‘nalish Xitoyda ham eng katta

2015-yili “Xitoyda ishlab chiqarilgan — 2025” dasturini tasdiqladi.

Hozirgi kunda Xitoy yarimo‘tkazgichlar sanoatida uchta yo‘nalishda texnologik jihatdan ilg‘or davlatga aylana oldi. Bular — integral sxemalarni dizaynlash, yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarish hamda yarimo‘tkazgichlar asosida xotira chiplarini qadoqlash va sinovdan o‘tkazishdan iborat. Mamlakatda yarimo‘tkazgichlar sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 16,7

mingtani tashkil etgan. 2024-yilda Xitoy yarimo‘tkazgichlar sanoatida 160 milliard dollar miqdoridagi mikrosxemalarni eksport qilishga erishdi. Hozir zamonaviy texnologiyalar va jahon andozalari asosida mikrosxemalarni loyihalashni amalga oshira oladigan korxonalar soni qariyb 3,5 mingtani tashkil etmoqda.

Garchi Xitoy yarimo‘tkazgichlar sanoatida zarur asbob-uskuna va yuqori ishlab chiqarish texnologiyalarida AQSH, Niderlandiya, Yaponiya kabi davlatlardan ortda qolayotgan bo‘lsa-da, Xitoyning “Naura” kompaniyasi 2024-yilda ilk bor ushbu sanoat uchun asbob-uskuna va texnologiyalar ishlab chiqaruvchi dunyodagi 10 ta yetakchi korxona ro‘yxatiga kirdi. Bu boradagi rivojlanishlar omili sifatida mamlakatning sanoatdagi ilmiy tadqiqotlarga sarflangan xarajatlari ham e‘tirof etiladi. O‘tgan yili Xitoy bu maqsadlarga jami 496 milliard dollar sarflagan.

O‘zbekistonda ham ayni jihatga katta e‘tibor qaratilmoqda. Yarimo‘tkazgichlar ishlab chiqarish sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish va bunga nufuzli ilmiy markaz va tadqiqot muassasalarini jalb etish, jumladan, xorijiy mutaxassis va olimlarni olib kelish ustuvor vazifalar qatorida ko‘rilyapti. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Fizika-texnika instituti, Toshkent davlat texnika universiteti kabi ilmiy va tadqiqot muassasalari salohiyati aynan yarimo‘tkazgichlar bo‘yicha yangi tadqiqot va ishlannamalarni olib borishga qaratilgan.

Hozir mazkur muassasalar tomonidan mikroelektronika sohasida yangi ishlannamalarni yaratishga qaratilgan tadqiqotlarni xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda olib borish yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu borada yurtimiz olim va tadqiqotchilari yarimo‘tkazgichlar sanoati tez rivojlanayotgan Malayziya, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarning ilmiy-tadqiqot muassasalari va aql markazlari bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirishni rejalashtiryapti.

**G‘ofurjon USMONOV,
Sardor A‘ZAMOV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi
mas‘ul xodimlari**



Ekologiya

QIZILQUMNING YASHIRIN XAZINASI

YOXUD CHO‘LDAGI “HAYOT ILDIZI”

Yurtimiz tabiati bag‘rida ulkan sanoatlar yashirin. Uning cho‘llariga qadim to‘g‘laridan tortib, musaffo daryolar va so‘lim vodiylarigacha bebaho boyliklarga to‘la. Ulardagi ne‘matlarning aksari hali to‘liq kashf etilmagan. Qizilqum kengliklari ana shunday manzillardan biridir.

Amudaryo va Sirdaryo oraliq‘ida joylashgan Qizilqum cho‘li qariyb 300 ming kvadrat kilometr maydonga ega. Cho‘l bag‘rida noyob va shifobaxsh o‘simliklar o‘sadi. Shulardan biri shumg‘iya yoki ilmiy adabiyotlarda sistanze nomi bilan tanilgan o‘simlikdir. Manbalarga ko‘ra, u odamg‘iyoh (jenshen)dan besh barobar kuchli shifobaxsh xususiyatiga ega. Shumg‘iya aslida boshqa o‘simliklar ildizidan oziqlanuvchi parazit o‘simlik bo‘lsa-da, tuganaklari ming darгда davо. Sharq tibbiyotida necha asrlardan beri qo‘llaniladi. Xususan, Xitoy, Yaponiya va Rossiya undan yuzlab turdagi dori tayyorlanadi. Ushbu mamlakatlar uni “Qizil kitob”ga ham kiritgan. Qizilqumda uni odatda “cho‘ldagi hayot ildizi” deb ataydilar.

Shumg‘iya organizmni oziqlantiradi, asab tizimini tinchlantiradi, xotirani mustahkamlaydi, immunitetni oshiradi. Ayni paytda uning antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, yumshatuvchi va o‘smalarga qarshi xususiyatlari ham tibbiyotda e‘tirof etilgan.

Mana shu noyob o‘simlikni izlab, Buxoro viloyatining Jondor tumaniga yo‘l oldik. O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Buxoro ilmiy tajriba stansiyasi direktori Nizom Qahhorov

ekspeditsiyaga rahbarlik qildi. Uning ta‘kidlashicha, aynan Jondor hududidan cho‘lga kirish orqali shumg‘iya topish imkoni yuqori bo‘ladi.

Cho‘l‘i bizni o‘ziga xos jaziramasii bilan qarshi oldi. Yuzga quruq, issiq shamol uradi. Transportda cho‘l ichiga bir necha kilometr kirib borgach, ekspeditsiya a‘zolari sayohatni pyoda davom ettirdi. Atrof saksovuлzоr. Agar yo‘lni bilmasangiz, adashishingiz hech gap emas. Nihoyat cho‘l bag‘rida sanoqli bo‘lsa-da, shumg‘iya uchrata boshladik. Ammo bu o‘simlikning hammasi ham mo‘jizaviy dorivorlik xususiyatiga ega emas. Bildikki, dorivor o‘simlikni aniqlashning o‘ziga xos siri bor. Ya‘ni aynan saksovuл ildizi ostida o‘sgan va undan oziqlangan shumg‘iyagina noyob xususiyatga ega.

Yo‘lda davom etib, shu o‘simlikni ko‘paytirish maqsadida tashkil etilgan tadqiqot maydoniga yetib bordik. Bu yerda saksovuಲ್ಲarga belgilar bog‘langan, chunki shumg‘iya urug‘i aynan shu daraxt ildizi yaqinida o‘sadi. U 3-4 yil davomida shakllanadi va har 5-10 qadamda saksovuл ostidan bitta shumg‘iya o‘sishi kutilmoqda.

Darvoqe, ushbu ekspeditsiya oldidan mazkur o‘simlik bo‘yicha qator loyihalarga rahbarlik qilgan O‘zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy kengashi raisi Abdushukur Hamzayev bilan

bog‘landik. Uning ma‘lum qilishicha, 2021-yildayoq Yaponiyaning “OYO” kompaniyasi vakillari bilan Buxoro viloyati hududida dorivor shumg‘iya o‘stirish va Ohangaron o‘rmon xo‘jaligida inkubator bloklarda ko‘chat yetishtirish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha hamkorlikda loyihalarni amalga oshirishga kelishilgan. Bugungi kunda tadqiqotlar davom etmoqda. Xususan, Jondor tumanidagi stansiyada ham izlanishlar olib borilmoqda.

— Bu yerda bir necha usulda va turli chuqurlikda ekilgan shumg‘iya ushbu tajribalar o‘tkazilyapti, — deydi stansiya rahbari Nizom Qahhorov. — Ushbu dorivor o‘simlikning qanday sharoitda tez va sifatl o‘sishini aniqlashni maqsad qilganmiz. Agar tajriba muvaffaqiyatli kechsa, shumg‘iya asosida mahalliy dori ishlab chiqarish imkoni yaratiladi. Bu nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro tibbiyot rivojiga ham xizmat qiladi.

Bu yerdagi ko‘p o‘simliklar uch yil avval ekilgan. Ularning holati kuzatib borilyapti va natijalar ijobiy bo‘lsa, cho‘l zonalarida maxsus shumg‘iya fermalari tashkil etilishi mumkin.

Shumg‘iya asosida tayyorlangan preparatlarning bozor narxlari bilan qiziqqanimizda, uning ayrim turlari hatto odamg‘iyohdan ham qimmat sotilishi haqidagi ma‘lumotlarga duch keldik. Bu esa tabiat xazinasini faqat shifo emas, balki iqtisodiy foyda manbai ham ekanidan dalolat beradi.

**Anvar MUSTAFOQULOV,
jurnalist**

TADBIRKORLIK OILADAN, MAHALLADAN BOSHLANADI

Fransuz adibi Gektor Maloning “Oilamiz” degan kichkina hikoyasi bor. Unda Remi ismli yigit va uning kambag‘al oilasi — onasi, otasi va bir sigiri haqida hikoya qilinadi. Sigir ularga xuddi oila a‘zosidek qadrdon bo‘lib qolgan. Har kuni ertalab sigirni sog‘ib, sutini ichishadi, qolganidan sariyog‘ tayyorlashadi. Xullas, oilaning tirikchiligi butunlay shu sigirga bog‘lanib qolgan.

Oilada ota kasal bo‘lib qolgach, uni davolash uchun sigirni sotishga majbur bo‘lishadi. Endi ularning yigida na sut, na sariyog‘ bor. Shunday qilib, oilani yana kambag‘allik o‘z domiga tortadi...

Mana shu jaiji hikoyada oila iqtisodiyotining mohiyatini ochib beradigan katta bir falsafa bor. Chunki Remilar oilasi bir me‘yorga tushgan tutumning qurboni bo‘ladi. Xarajat va daromad, tirikchilik butunlay sigirdan sog‘ib olinadigan sut ustiga qurilgan.

Mutaxassislar iqtisodiy tarbiyani, avvalo, oiladan boshlash kerak deyishadi. Bu bor gap. Remilar oilasining ham qo‘shimcha biror-bir daromadi yo‘q edi. Shuning uchun sigirning sotilishi oilaga juda qimmatga tushadi.

Xo‘sh, oila nima o‘zi? U iqtisodiy yuksalishda qanday kuchga ega? Aslida, oila jamiyatning qon tomiri hisoblanadi. Oilalarning turmush tarzi va tutumi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish bosqichini belgilab beradi. Boshqacha aytganda, tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob kabi xislatlarga oilada tamol toshi qo‘yiladi.

Bugungi kunda yurtimizda mahalla, xususan, oilada tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishga va rivojlantirishga jiddiy e‘tibor berilmoqda. O‘tgan



Bandlik

yilning 16-dekabr kuni davlatimiz rahbari raisligida bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida banklar ishtirokida mahallalarda aholi bandligini ta‘minlash va daromadli qilish chora-tadbirlari bo‘yicha topshiriqlar berilgan edi. Shundan kelib chiqib, 2025-yilda jami 5 million 200 ming nafar, jumladan, banklar tomonidan 3 milliondan ziyod aholini band qilish rejalashtirilgan.

Mahalla bankirlari mahallaning biznes imkoniyatlarini o‘rganadi, odamlar bilan gaplashib, ularning g‘oyalarni loyihalarga aylantiradi. Aholining kredit olish, qaytarish, biznes ochild, mahsulotini sotishga o‘rgatadi, loyihalarga hamrohlik qiladi.

Xullas, ushbu yangi iqtisodiy mexanizm aholi uchun ham, banklar uchun ham birdek manfaat keltiradi. Har bir oilada tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish esa o‘sha oila a‘zolarining ish bilan bandligi va farovonligini ta‘minlaydi. Bu tizim oxir-oqibat oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi orqali ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga yechim topilishiga olib keladi.

Dunyodagi taraqqiy etgan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, qaysi davlatda oilaviy tadbirkorlik yaxshi rivojlansa, shu davlat iqtisodiyoti ham yuksalib boraveradi. Masalan, Xitoyda oilaviy tadbirkorlik shu darajada rivojlanganki, deyarli har bir oilada qandaydir tovar ishlab chiqariladi. Oila

xo‘jaligi farovonligini oshirish va mamlakatning qudratini yuksaltirish yo‘llaridan biri oila xo‘jaligida tashkil qilingan tadbirkorlikdir.

Qayd etish joizki, bugun oilaviy tadbirkorlikning ahamiyati yanada oshmoqda. Chunki mamlakatimizda kambag‘allikni tugatishda, aholini ish bilan ta‘minlashda, farovonlikni oshirishda ushbu tadbirkorlikning ahamiyati beqiyos. Shu tufayli sohani rivojlantirishga qo‘shimcha mablag‘lar ajratib, uni keskin yaxshilash vazifasi qo‘yildi. Bunda banklar faol ishtirok etmoqda.

Masalan, “Turonbank” ATBda ham aholini daromadli mehnat bilan ta‘minlash, doimiy ish bilan band qilish va tadbirkorlikka jalb etish bo‘yicha ishlar faol olib borilyapti. Aniqlik qilib aytganda, asosiy maqsad aholi orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish, fuqarolarni tadbirkorlikka qiziqtirish, ishsiz aholining bandligini ta‘minlashdir.

Bu bo‘yicha Sayxunobod, Uychi, Zarbdor tajribalari namuna qilib olingan. Ushbu tajribalar asosida aholining bilimini oshirib, ularga imtiyozli kreditlar berish orqali o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashiga ko‘maklashilyapti.

2025-yilda bank tashabbusi bilan besh nafar fuqaroga dala do‘koni, qandolat do‘koni va novvoyxona qurib berildi. Hozirgi kunda bu do‘konlar samarali faoliyat olib bormoqda va yetti nafar fuqaro ish bilan ta‘minlandi. Ikki nafar fuqaro “mahalla yettilligi” bilan birgalikda tibbiyot muassasasiga hamshira lavozimiga ishga joylashtirildi. Bundan tashqari, ijtimoiy xodim va hokim yordamchisi bilan hamkorlikda nogironligi bo‘lgan fuqaro “Elektron hisoblagich TRAD” MCHJga sotuv ishlari menejeri lavozimiga ishga joylashtirildi.

Hozir yangi loyihalar ustida ish olib borilmoqda, ya‘ni uyda o‘tirgan yosh bolalar uchun tadbirkorlar bilan kelishgan holda mahsulotlarni uyda turib qadoqlashni tashkil etish masalalari o‘rganilyapti.

Prezidentimiz nutqlarining birida “Mahallalar — davlatimizning eng katta zaminidir”, degan edi. Haqiqatan, mahalla — yurt yuragi, xalq bilan mamlakat o‘rtasidagi ishonch ko‘prigi sifatida xizmat qiladigan, insonni jamiyatning bir qismi bo‘lishga o‘rgatadigan, uni bag‘rikenglik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalaydigan makon.

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Rennessansga poydevor qo‘yilayotgan ekan, uning asosiy mexanizmi bo‘lgan oila iqtisodiyoti yangi davr uchun pillayoga vazifasini o‘taydi. “Vatan ostonadan boshlanadi” deyishadi. Uning iqtisodiy va ma‘naviy rivojlanishi ham ota-onaning farzandlariga bergan tarbiyasiga bog‘liq. Oila iqtisodiyoti va ma‘naviyati yangi davrning muhim ustunlaridan biridir.

**Faridun EGAMSHUKUROV,
“Turonbank” ATB bosh mutaxassisi**

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tibbiyot turizmi — jahon turizm sanoatining yetakhi yo‘nalishlaridan biri. Dunyoda sifatli va arzon tibbiy xizmatga ehtiyoj tobora ortib boryapti. So‘nggi paytlarda O‘zbekiston ham raqobatchardosh narxlari, zamon talabiga mos klinikalari, tibbiy muolajalar sifati, yuqori malakali mutaxassislari bilan sayyohlar uchun jozibador manzilga aylanmoqda.

Turizm qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonga davolanish maqsadida 110 mingga yaqin xorijlik sayyoh kelgan va tibbiy turizm eksporti 174 million AQSH dollarini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yildagidan 40 foiz ortgan.

Bugungi kunda tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida kelayotgan xorijliklarning 80 foizi qo‘shni davlatlar

klinikalari tomonidan turli tibbiy muolajalar taklif etilyapti. Xizmatlar doirasi keng: stomatologiya, plastik jarrohlik, kardiologiya, ortopediya, reabilitatsiya, to‘liq tibbiy tekshiruvlar, laboratoriya tahlillari va vizual diagnostika...

— Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga 2024-yilda xorijning 2824



hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususan, Termizdagi Ayritom chegara postiga tutash hududda tashkil etilgan zamonaviy tibbiyot majmuasida Afg‘oniston va Tojikiston fuqarolari davolanmoqda. Sayyohlarning asosiy qismi og‘ir turdagi jarrohlik amaliyotlari, kardiologiya, urologiya, qandil diabet va boshqa turdagi kasalliklardan davolanish maqsadida yurtimizga kelmoqda.

Sayyohlarni qabul qiladigan respublika tibbiyot markazlari, xususi tibbiyot muassasalari, ilmiy tekshirish institutlari

fuqarosi shifo istab kelgan bo‘lsa, joriy yilning besh oyida 1196 xorijlik bemor markazga murojaat qildi, — deydi markaz direktori o‘rinbosari, tibbiyot fanlari doktori Fayzulla Umarov, — Bundan-da yuqori ko‘rsatkichlarni qamrab olishga salohiyatimiz yetadi. Ayni paytda tibbiy turizmni rivojlantirishga bag‘ishlangan xalqaro va respublika ko‘rgazmlarida faol ishtirok etib, yuqori texnologik operatsiyalar, bo‘limlarni jihozlash hamda diagnostika, reabilitatsiya imkoniyatlarini namoyish etyapmiz.

Bemorlarning aksariyati Markaziy Osiyo davlatlaridan keladi, bu esa bizda travmatologiya va ortopediya xizmati yuqori darajada ekanini ko‘rsatadi.

— Qozog‘istonning Chimkent shahridan keldim, — deydi Dilnoza Ro‘zmetova. — Ikki yil oldin oyog‘imdan jarohat olgandim. O‘shanda gips qildirmaganman. Shu-shu og‘rib yurdi. Ushbu tibbiyot markazi haqida eshitgandim. Murojaat qilganimda ploskostopiya va bo‘g‘in yopishishi tashxisini qo‘yishdi. Yuqori malakali shifokorlarning to‘g‘ri va aniq tashxisi, maslahati, yaratilgan shart-sharoitlarni ko‘rib, shu yerda operatsiya qildirishini ma‘qul topdim. Jarrohlik amaliyoti muvaffaqiyatli o‘tdi, hozir ahvolim yaxshi.

Bunday misollarni yana keltirish mumkin. Sayohat qiziqarli sarguzashtlarni o‘z ichiga olsa-da, ayrim hollarda salomatlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelishni ham istisno qilib bo‘lmaydi. Zarur tibbiy yordam tez va sifatli ko‘rsatilishi sayyohlarning mamlakatga ishonchini oshiradi. Markazda ana shu jihatlariga e‘tibor qaratilgan.

— Bu yo‘nalishda ko‘rsatilgan malakali xizmat nafaqat salomatlikni yaxshilaydi, balki mamlakatning turistik nufuzini ham yuqori darajaga olib chiqadi, — deydi Fayzulla Umarov.

“Avitsenna” targ‘ibot brendi

Koronavirus pandemiyasi insonlar sog‘lig‘ida izini qoldirganini inkor eta olmaymiz. Qolaversa, ekologik va boshqa sabablar tufayli yuzaga kelayotgan yangi kasalliklar tibbiy xizmatlarga ehtiyojni oshirmoqda. Bu esa xizmatlar sifati

yanada yaxshilash, sohaga eng ilg‘or tajribalarni tatbiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 23-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida “Tibbiy xizmatlar mehmondo‘stligi” (“Medical service hospitality”) dasturini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Qarorga ko‘ra, “Avitsenna” nomi ostida O‘zbekistonning tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi brendi ishlab chiqilib, xorijiy



mamlakatlarda targ‘ibot kompaniyalari yo‘lga qo‘yilayotir. Bu brend doirasida sanatoriy va klinikalar faoliyati monitoring qilinmoqda.

Ayni paytda toifali (yulduzli) mehmonxonalar tipidagi sanatoriylarga “besh yulduzli” toifasi berilyapti. Misol uchun, Toshkent viloyatida joylashgan “Tashthermal”, “Toshmineralsuv” sanatoriylari shular jumlasidan.

Xalqaro hamkorlik muhim

Xalqaro raqobatchardoshlikni oshirish, tibbiyot turizmi bo‘yicha umumiy dastur va strategiyalarni birgalikda ishlab chiqish tashkilotlar o‘rtasida mustahkam integratsiya va muloqotni talab qiladi. Davlat, xususi sektor, xalqaro hamkorlar, ilmiy jamoalar birlashib ishlasa, tibbiyot turizmi sektori rivojlanib, katta iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradi. Ana shu maqsadda 2024-yil dekabr oyida mazkur yo‘nalishda faoliyat yurituvchi 16 ta tadbirkorlik subyekti ishtirokida Belarusning yirik tibbiyot va sanator-kurort obyektlariga infotur tashkil etildi.

2025-yil fevral oyida Slovakiya bilan hamkorlik ishlari boshlandi. Slovakiyaning “Boynitse”, “Nimnitsa”, “Shtos” kabi kurort zonalarida hamda “Slovenskiy ray”, “Plyenap”, “Polonini” kabi milliy bog‘larida tashkil etilgan sog‘lomlashtirish yo‘nalishida tajriba almashilmoqda. Shu maqsadda ikki davlat turistik tashkilotlari hamkorlikda ishlab, yurtimizga sayyohlar faol jalb qilinishi rejalashtirilgan.

— Shu yil Madrid, Lion, Nyu-York, Dehli, Budapesht, Berlin, Moskva, Minsk, Dubay, Guanchjou shaharlarida o‘tkazilgan xalqaro turizm ko‘rgazma va yarmakalarida mamlakatimizning turizm salohiyati, jumladan, tibbiy turizm imkoniyatlari targ‘ib qilindi, — deydi Turizm qo‘mitasi mas‘ul xodimi Doston Mo‘minjonov. — Rossiyaning “Первый канал” telekanalida Buxoroda tibbiy turizm sohasidagi ishlar ko‘rsatib berildi. Buyuk Britaniyaning “London post” yangiliklar portalida esa Surxondaryo viloyatining Sangardak shaharasi va Omonxona qishlog‘iga bag‘ishlangan maqola e‘lon qilindi.

Qilinishi zarur bo‘lgan ishlar ko‘p

Tibbiyot turizmi rivoji boshqa sohalarda taraqqiyotiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ya‘ni davolanish uchun kelgan sayyoh mamlakatda muayyan vaqt qoladi, bu esa mehmonxona xizmatlari, restoranlarga talabni rag‘batlantiradi. Sayyohlar davolanish bilan birga qiziqarli ekskursiya dasturlaridan bahramand bo‘lishi, O‘zbekistonning boy madaniy va tarixiy merosi bilan tanishishi shubhasiz.

Xususi sektor yo‘nalishni faollashtirishda muhim o‘rin tutaypti. Tibbiy turizm infratuzilmasi kengaymoqda.

— Ammo oldinda qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ham ko‘p, — deydi Doston Mo‘minjonov. — Mamlakatda xorijlik bemorlarni qabul qilish bilan bog‘liq xizmatlar sifati oshirish, jumladan, ko‘p tili xizmatlarni joriy etish, transport infratuzilmasini yaxshilash va sayyohlar uchun qo‘shimcha imtiyozlar yaratish zarur.

O‘zbekistonda tibbiy turizm istiqbolli va jadal rivojlanayotgan soha, u nafaqat mamlakat iqtisodiy o‘shishiga hissa qo‘shadi,



sayyohlar fikrlari asosida baholab borilmoqda.

Tibbiyot muassasalari, sanatoriy, pansionatlar va tibbiy turizm yo‘nalishida xizmat ko‘rsatuvchi turoperatorlar xizmatlari sifati baholab beruvchi elektron platforma ishlab chiqildi va sinov tariqasida ishga tushirildi.

O‘zga yurtga yo‘l olayotgan sayyoh, avvalo, internetdan o‘sha mamlakat haqida ma‘lumot izlaydi. Xorijiy auditoriyaning mamlakat taqdim etayotgan imkoniyatlardan xabarдорlik darajasini oshirish juda muhim.

balki xalqaro maydondagi imijini ijobiy shakllantiradi.

Davolanishni madaniy tanishuv bilan birlashtirgan kompleks takliflar xorijlik bemorlar uchun jozibadorlik kasb etishi shubhasiz. Mamlakatimizda buning uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Dunyoda jadal rivojlanayotgan ushbu sohada kuchli pozitsiyani egallash nafaqat iqtisodiy o‘shishga, balki aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish darajasini sezilarli darajada yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Bitta qizni o‘qitsak, butun oilani o‘qitgan bo‘lamiz.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



Bir tanishim qo‘ng‘iroq qilib, kenja o‘g‘liga to‘y uchun hamma narsa, alohida uy ham tayyor-u, risoladagi kelin topilmayotganini aytib qoldi. Qishloqdagi bo‘y yetgan qizi bor birorta xonadon qolmabdi. Qizlarning bari oliygohda o‘qiyotgan, aksari 1-2-bosqich talabalari, bitirayotganlarini esa allaqachon unashtirib qo‘yishayotgan ekan. Ota-onalarning deyarli hammasi “Qizimizni o‘qitamiz, qachonki oliygohni tamomlaydi, keyin to‘y”, degan javobni beribdi. To‘g‘risi, rosa xursand bo‘ldim. Negaki biz talabalik kezlarimiz “Shaharda o‘qigan qizlar bo‘lmaydi, undan ko‘ra o‘qimagan qizlarni kelin qilish kerak” degan tushuncha keng yoyilgandi. Shuning uchunmi, tanishim xafa bo‘ladi deb o‘tirmay, kelin topishga qiynalsak ham mayli, qizlarimizning qadri hamisha baland bo‘laversin, dedim.

Shu kabi onalar Zangiota tumanida o‘tgan Qizlar forumiga o‘xshagan tadbirlarga kelib qolsa bormi! Tumanning eng bilimdon, eng oqila, bir so‘z bilan aytganda, sara o‘quvchi qizlari jamlangan tadbirga ularning onalari ham taklif etildi. Zero, shundayin qiz tarbiyalaganidan g‘ururga to‘lishning zavqini hech narsaga tenglab bo‘lmasa kerak.

Forumning ahamiyati haqida yozayotib e‘tiborimizni torgan ikki holatga to‘xtalib o‘tsak. Biri Toshkent viloyatidan, biri namanganlik bo‘lgan ikki tadbirkor qizning muvaffaqiyati bizni yanada ruhlantirib yubordi. Nima bo‘pti, hozir ishlabilarnon qizlar talay-ku, dersiz. To‘g‘ri, bugun maktab partasida o‘tirib, tadbirkorga aylanayotgan qizlar ko‘p. Biroq

namanganlik Diyora Erkinboyeva bu borada ancha mashqatqatli yo‘lni tanlagani ajablanarli. Shu yil 11-sinfni tamomlagan bu qizning 20 dan ortiq oti — ot fermasi bor. Otga otasi sabab mehr qo‘ygan Diyora 10 yildan buyon jonivorlarning o‘ziga xosligi va ularni parvarishlash sirlarini o‘rganib keladi. Yosh tadbirkor sifatida qator yutuqlarga ham erishmoqda. Yilqichilikni keng rivojlantirish, qo‘shimcha ilg‘i o‘rinlari yaratish va yoshlar tadbirkorligini omallashtirishini maqsad qilgan bitiruvchi qiz oyiga 50 million so‘m daromad topayotgani haqiqat. Axaltaka va qorabayirdek zotdor otlari nafaqat mamlakatimizda, balki Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston kabi qo‘shni davlatlar bozorida ham xaridorgir. Otlarning 15 ming dollargacha baholanganlari bor.

O‘zida jasorat, matonat, kuchli irodani shakllantira olgan Diyora tanlagan kasbi bilan faxrlanadi. Xuddi uningdek bolalikdan uyida ipak qurtini ko‘rib ulg‘aygan piskentlik Nafosat Ma‘murova esa ipak qurtlari inkubatsiyasi, ularning yangi-yangi navlarini kashf etishga qiziqadi. Bu qiziqishi uni Toshkent davlat agrar universitetining ipakchilik va tuchilik fakultetiga yetakladi. O‘qish barobarida uyda qurt boqib, kasanachilikni yo‘lga qo‘ygan Nafosat oilaviy budjetga hissa qo‘shayotganidan baxtiyor. Nasib qilsa, kelasi yil — oxirgi bosqichda o‘z sohasi bo‘yicha Xitoyda malaka oshirib kelish niyatida.

Biri bo‘lg‘usi pillakor, biri yilqiboqar bo‘lgan bu qizlarga chindan havas qildik. Ular ham jamiyatimizda xotin-qizlarga qaratilayotgan alohida e‘tibordan kuch olaypti. Imkoniyatlar, imtiyozlar sabab o‘z oldiga katta-katta maqsadlarni qo‘ymoqda. Albatta, bu maqsadlariga erisha olishiga ko‘zi yetaypti. Chunki faol tadbirkor, ziyoli ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash



Shunda bo‘lg‘usi lider ayollarni barvaqt kashf qilishimiz mumkin



davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishiga aylanganini ular yaxshi biladi. Mana shunday qizlar, nasib qilsa, bo‘lg‘usi lider ayollar toifasidan ekani bilan ko‘ngilga ko‘tarinkiilik ulashadi.

— Asosiy maqsadimiz — iqtidori, tashabbuskor va faol qizlarni aniqlash, salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, kelajakdagi orzu-itilishlarini ro‘yobga chiqarishda dalda bo‘lish. Zero, bunday xayrli ishlarga davlatimiz rahbarining o‘zi rahnamolik qilib turibdi, — deydi Zangiota tumani hokimi o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i Saodat Usmonova. — Prezidentimiz shu yil Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigida xotin-qizlarga e‘tibor yanada kuchaytirilishini aytib, “Qizlarimiz bunyodkor

avlod bo‘lib maydonga chiqishi uchun kelgusida ularga qo‘shimcha sharoitlar yaratib beramiz”, dedi. Tabrikda, shuningdek, “Yorqin kelajak” loyihasi doirasida kamida 200 nafar qiz har yili dunyoning nufuzli oliygohlariga o‘qishga yuborilishi haqida so‘z boradi. Shu yil 30-iyun kuni yoshlar bilan uchrashuvda esa davlatimiz rahbari kamida 50 ming qiz “Raqaamli avlod qizlari” loyihasi bilan qamrab olinishini aytdi. Bularning barchasi ayollarga imkoniyat eshiklarini ochadi.

O‘zbek ayollarining jamiyatdagi o‘mi, bugungi keng imkoniyatlardan foydalanib, liderlik darajasida faoliyat yuritayotgan ayollar haqidagi videoreolik orqali ularni yanada ruhlanitirishga harakat qildik. Tadbirga onalarni ham taklif etdikki, bu ular uchun o‘ziga xos bir

rag‘bat, ibrat bo‘lsin. Zero, bir oilada 2-3 qiz tarbiya qilayotgan onalar bor. Bu kabi tadbirlar endi ularning qizlar ta‘limi, tarbiyasiga jiddiy yondashishda muhim omil bo‘ladi.

Tadbirida “Saodat” jumali bosh muharriri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, tanqili shoira va jurnalist Munavvara Usmonova bugungi yosh avlod, xususan, qizlarning jamiyatdagi o‘mi va ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida so‘z yuritib, ishtirokchilarga o‘z tilaklarini bildirdi. Forum doirasida namoyon bo‘layotgan iqtidor, ishonch va qat‘iyat yoshlarimizning kelajakka bo‘lgan mustahkam qadamlaridan dalolat ekanini ta‘kidladi.

— Juda ajoyib anjuman bo‘ldi. Maktab bitiruvchilari bo‘lgan a‘lochil qizlarimiz, dunyoga o‘ng ko‘z bilan qaraydigan, dadil qadam bilan borayotgan, zamon bilan hamnafas yashayotgan yoshlarimiz bilan uchrashdik, — deydi D.Usmonova. — Har bir o‘quvchining qalbida dunyoga orzulari, havaslari bor. Qizlar va onalari bilan suhbatlashgan paytim xotin-qizlar jumali rahbari, bir ijodkor sifatida ular ko‘zlayotgan maqsadlar, tanlagan yo‘llari meni to‘lqinlantirdi. Qizlarning aksariyati milliy sertifikatlarni qo‘lga kiritgan. Men o‘qituvchi bo‘laman, men shifokor bo‘laman, men huquqshunos bo‘laman, men onamga o‘xshagan tadbirkor bo‘laman degan yoshlarimizni ko‘rdim. Qizlardan biri “Onamning biroz nogironligi bor, lekin mening ikkala qo‘lim soppa-sog‘, oyog‘larim dadil qadam tashlaydi. Men onamning armonlarini ro‘yobga chiqarib, ukalarimga, singillarimga bosh bo‘lmoqchiman”, dedi. Bir so‘z bilan aytganda, bugunning yoshlari, bugunning qizlari boshqacha. Yuragida vatan ishqil urib turgan mana shunday farzandlarni ulg‘aytirgan otalarga, onalarga, ta‘lim bergan ustozlariga rahmat!

Forum doirasida o‘qish, sport, san‘at va boshqa yo‘nalishlarda yutuqlarga erishgan qizlar alohida e‘tirof etilib, munosib taqdirlandi.

— Maktabni tamomlab, katta hayotga qadam qo‘yayotganimiz qanday hayajonli bo‘lsa, Qizlar forumi undan-da hayajonli bo‘ldi, — deydi Nazira Dadaboyeva. — Aslida, biz qanday yutuqlarga erishgan bo‘lsak, o‘zimiz uchun, porloq kelajagimiz uchun. Lekin buni butun bir jamiyatga manfaatli hisoblasak, uning salmog‘i yanada ortadi. Muddatidan avval talaba bo‘lish baxti ham bugun juda ko‘p qizlarga nasib etyapti. Magistratura bepul o‘qish, foizsiz kredit olish huquqiga egalik — bularning barchasi qizlarni yana va yana oliy ma‘lumotli bo‘lishga undayapti. Forum davomida mana shular haqida o‘ylab, naqadar baxtli yoshlar ekanimizni yana bir karra his qildik.

Nazira kabi yorug‘ kelajakka ishonchi ortgan qizlarning onalari ham bugungi sharoitlar avval bo‘lmagani, aksariyati oliygohda o‘qishni istasada, turli sabablariga ko‘ra o‘qiy olmaganini alohida ta‘kidladi.

— Shunday bir chiroyli tadbirga taklif etilganimdan nihoyatda baxtiyorman. Qizim kabi ko‘plab yutuqlarga erishgan qizlarning chiqishlarini tomosha qilayotib ko‘zimga quvonch yoshi keldi. O‘qib-o‘rganaman, yetuk inson bo‘laman degan bugungi yoshlarga hamma sharoit yetarli. Istasa, chet elga ham yo‘llar ochiq. Hech kim bilimi bor yoshni nari qilmaydi, turtkilamaydi. Aksincha, boshga ko‘tarib hurmatlaydi. Ayniqsa, qizlarni o‘qitish kerakligi qayta-qayta gapirilayotgan bir paytda qizlarimizni o‘qitmasak, ko‘ra-bila turib ularni kamsitgan bo‘lamiz. O‘zim guvoh bo‘ldim, qizim qancha mashqatqatlar bilan til bo‘yicha 2 ta sertifikat oldi. Qiyinchiliklarini ko‘rganingdan keyin bolang qizlari bir davrada turib, birga e‘tirof eshitish o‘ziga bo‘lar ekan, — deydi ishtirokchi onalardan biri Dilorom Avazova.

Ha, aslida, ta‘lim dargohlaridagi katta-katta tadbirlarga ham ota-onalarni chaqirish, farzandining iqtidori, salohiyatidan ularni boxabar etib urish kerak. Zero, oilada iste‘dodi haqida gapirishga tortinadigan, maktabdagi muvaffaqiyatlarini ota-onaga aytmaydigan bolalar bo‘ladi. Aks holda, ayrim tadbirlarga guvoh bo‘lgan aksariyat ota-onalar “Voy, mening farzandimmi shu? Nahotki shunday qobiliyati bo‘lsa?” demas edi.

Ha, bu sizning farzandingiz degan go‘zal javobni eshitishni qaysi ota-ona xohlamaydi?! Ota-onam o‘qishga kirishimga rozi bo‘larmikan, bu kasbni tanlasam, nima derkan deb yurgan qizlarimiz ham yo‘q emas. Ularni qiziqishlarga qarab yo‘naltira olsak, kerakli joyda tayanch bo‘lsak, jamiyatga bugun ot boqib daromad ko‘rayotgan Diyora-yu pillakor Nafosat kabi kuchli, qat‘iyatli qizlarni, ertaga esa lider ayollarni ulg‘aytirib beramiz.

Munojat MO‘MIANOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

